

## BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHI O'QITUVCHILARI UCHUN AMIR TEMUR SHAXSINI O'QITISHNING AHAMIYATI.

**A.Abdumannotov**

*Oriental universiteti Samarqand kampusi  
“Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” kafedrası  
dotsenti , pedagogika fanlari nomzodi*

**Xadiyeva Shaxina**

*Oriental universiteti  
“Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” kafedrası  
Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi  
2-bosqich 403-guruh talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang’ich sinf o’quvchilariga buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur hayoti va faoliyatini o’rgatishning pedagogik ahamiyati, tarbiyaviy jihatlari hamda interfaol metodlar asosida darslarni tashkil etish yo’llari keng yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** Amir Temur, Temuriylar, tarbiya, tarix, boshlang’ich ta’lim, vatanparvarlik, ma’naviyat, pedagogika.

**Аннотация:** В данной статье подробно освещаются педагогическое значение обучения учащихся начальных классов жизни и деятельности великого полководца и государственного деятеля Амира Темура, его воспитательные аспекты, а также пути организации уроков на основе интерактивных методов.

**Ключевые слова:** Амир Темур, Темуриды, воспитание, история, начальное образование, патриотизм, духовность, педагогика.

**Annotation:** This article extensively highlights the pedagogical importance of teaching primary school students about the life and activities of the great commander and statesman Amir Temur, its educational aspects, as well as ways of organizing lessons based on interactive methods.

**Keywords:** Amir Temur, Timurids, education, history, primary education, patriotism, spirituality, pedagogy.

Bugungi kun ta’lim nuqtai nazaridan o’quvchilarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa boshlang’ich ta’lim bosqichida bolalar ongiga milliy qadriyatlar va tarixiy merosni singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. SHu nuqtai nazardan, buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur shaxsini o’rgatish o’quvchilarda vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev Amir Temurni buyuk davlat arbobi , yengilmas sarkarda ,ilm-fan va madaniyat homiysi hamda milliy davlatchilik asoschisi sifatida yuksak qadrlaydi. Uning fikricha , Soxibqiron merosi milliy g'urur va iftixor manbai hisoblanadi.

SHavkat Mirziyoyev Sohibqironning „Adolat- davlatning asosi“ degan shiori bugungi kunda ham dolzarb ekanligini , davlat boshqaruvining muhim asosi bo'lib xizmat qilayotganini ta'kidlaydi. Xar yili aprel oyi O'zbekistonda Amir Temur tavalludi munosabati bilan „Amir Temur oyligi“ sifatida nishonlanadi. Prezidentimiz Amir Temur tavalludining 690 yilligi (2026 yil) keng nishonlash bo'yicha aloxida qaror imzoladi. Ushbu yubiley munosabati bilan Prezident tomonidan bildirilgan asosiy fikrlar Sohibqiron merosini Yangi O'zbekiston poydevori va Uchinchi Renessans uchun ma'naviy manba sifatida talqin qilishga qaratilgan. { 1 }

Boshlang'ich ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Jumladan , J.A.Bekmurodova o'zining Boshlang'ich ta'lim metodikasi asarida ta'lim jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish, darslarni sodda va qiziqarli tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi. Muallif ta'lim va tarbiyaning uyg'unligini ta'minlash, shuningdek o'quvchilarni faol ishtirok ettirish orqali bilimlarni mustahkam o'zlashtirish mumkinligini qayd etadi. Bu yondashuvlar Amir Temur shaxsini o'qitishda ham katta ahamiyatga ega bo'lib, dars jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. {2}

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Jumladan , N. Saidova o'zining ta'limda „Tarbiyaviy yondashuv“ asarida har bir dars tarbiyaviy mazmunga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Muallif fikricha, o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarda ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni shakllantiruvchi tarbiyachi ham hisoblanadi. Ushbu yondashuv Amir Temur shaxsini o'qitishda muhim bo'lib, uning hayoti va faoliyati orqali o'quvchilarda vatanparvarlik, adolatparvarlik va mas'uliyat kabi fazilatlarni rivojlantirish imkonini beradi. {3}

Tarixiy manbalarga tayangan holda Bahodir Ahmedov o'zining Amir Temur asarida Temurni kuchli davlat asoschisi va adolatparvar rahbar sifatida tavsiflaydi. Muallif uning davlat boshqaruvida intizom, tartib va qonun ustuvorligiga alohida e'tibor qaratilganligini takidlab o'tgan. Uning fikricha boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarga Temur shaxsini to'g'ri va ibratli tarzda yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali o'quvchilarda adolatlilik, mas'uliyat va vatanga sadoqat kabi fazilatlarni shakllantirish mumkin. {4}

Amir Temurni hayotini, davlat boshqaruvini, vatanga bo'lgan sadoqatini boshlang'ich sinflarga o'rgatishda ularning yoshiga mos ravishda metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Masalan quyidagi metodlarni misol qilib olsak bo'ladi.

### **-Hikoya usuli:**

O'qituvchi Temur hayotidan sodda va qiziqarli voqealarni aytib beradi. Sodda qilib aytilgan narsa esda qolishi oson.

### **-Subhat va savol-javob:**

Temur qanday inson bo'lgan? Nima uchun Amir Temur kuchli sarkarda bo'lgan?, U qanday fazilatlarga ega edi? kabi savollar orqali o'quvchilarning fikrlash va mulahaza qilishga o'rgatadi. U haqida ko'proq malumotga ega bo'lishadi. O'zlari qiziqqan savollariga javob topishadi.

### **-Rolli o'yinlar:**

O'quvchilar Temur va uning sarkardasi rolini ijro etadi. Bu metod orqali o'quvchilar o'zlarini Temur davriga tushub qollganday his qilishadi va mavzuni his qilib o'rganadi, yaxshi eslab qoladi.

### **Ko'rgazmalilik:**

Rasmlar, xaritalar va qisqa videolardan foydalanish. Bu metodda o'quvchilarga Amir Temurning suratini, haykallari qaysi shaharlarda o'rnatilganini Davlatining xaritasini, bayrog'ini ko'rsatib o'tsak ayni muddao.

### **-Interaktiv metodlar :**

“Aqliy hujum” , “Klaster” .”Blits-so'rov” kabi usullar. Bu usullar orqali o'quvchilarning faolligini oshirish, erkin fikrlash, tasavvurini kuchaytirish mumkin.

Amir Temur shaxsini metodlar orqali o'qitish-ta'lim va tarbiyani uyg'unlashtirgan samarali yondashuvdir. Turli interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarda:

- chuqur bilim
- mustahkam xotira
- ijodiy va mustaqil fikrlash

kabi muhim qobiliyatlarni shakllantiradi. Shu bilan birga, ularda milliy g'urur va vatanparvarlik ruhi mustahkamlanadi.

### **XULOSA**

Boshlang'ich ta'lim tizimida Amir Temur shaxsini o'qitish nafaqat tarixiy bilim berish, balki o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashda ham muhim o'rin tutadi. Uning hayoti va davlatchilik faoliyati misolida bolalarda adolat, jasorat, intizom, mas'uliyat va vatanparvarlik kabi yuksak fazilatlarni shakllantirish mumkin. Temuriylar davrining Markaziy Osiyoda yuksalish bosqichi sifatida baholanishi o'quvchilar ongida o'z tarixiga nisbatan hurmat va qiziqishni kuchaytiradi. Pedagogik jihatdan qaraganda, J.A.Bekmurodova va N.Saidova asarlarida ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi, dars jarayonida o'quvchilarning faolligini taminlash, shuningdek, har bir mavzudan tarbiyaviy xulosa chiqarish zarurligi takidlangan. Bu yondashuvlar Amir Temur shaxsini o'qitishda ham juda samarali bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ahloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Amir Temur shaxsini

boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qitish o'quvchilarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu mavzuni zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar asosida tashkil etish esa ta'lim samaradorligini yanada oshiradi hamda kelajak avlodni ma'naviy yetuk, vatanparvar va bilimli insonlar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. -dunyo.info:Prezident SHavkat Mirziyoyevning "Amir Temur va temuriylar tamaddunining jaxon tarixi va madaniyatidagi o'rni va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya ishtirokchilariga tabrigi (2026-yil 9-aprel)
- 2.J.A.Bekmurodova . Boshlang'ich ta'lim metodikasi.-Toshkent.
3. N.Saidova. Ta'limda tarbiyaviy yondashuv.- Toshkent.
- 4.Bahodir Ahmedov. Amir Temur. - Toshkent.
- 5 Google.